

О‘ЗBEK TILI MORFEM QURILISHI VA UNDA AFFIKSOIDLARNING O‘RNI

Shoniyozova Gulshoda

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: o‘zbek tilida affiksoidlarning o‘rni, affiklarga aylangan affiks muammosi, affikslarning ta’rifi masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: affiksoid, morfema, prefiksoid, affiks, leksema, lisoniy birlik

Morfema til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo‘lib, leksemadan farqli holda grammatik ma’no ifodalashga xizmat qiladi (yunoncha morphe - 'shakl'). Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o‘z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyingina butun holatiga o‘tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o‘zi mansub turkum leksemasiga qo‘shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema qo‘shiladigan birlik, morfema – leksemaga qo‘shiladigan birlik (Shu xususiyatini nazarda tutib morfema qo‘shimcha deb nomlanadi). Morfema ham leksema kabi mavhum birlik: miyaning til xotirasi qismida ramz sifatida aks etgan bo‘ladi va shu holatida lisoniy birlik deyiladi. Lisoniy birlik sifatida morfema ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Masalan, keldim birligining oxiridagi -m qismi morfemaga teng; uning ifoda jhati bo‘lib m fonemasi xizmat qiladi; mazmun jhati esa 'I shaxs birlikka nisbat berish' ma’nosidan iborat. Morfemaning mazmun jhati deb u ifodalaydigan grammatik ma’noga aytiladi. Morfemaning mazmun jhati leksemaning mazmun jhatidan soddaroq: leksema voqelikning nomi bo‘lib, nominativ vazifa ham bajaradi, morfemada esa nomlash vazifasi yo‘q, faqat signifikativ vazifa bajaradi: grammatik ma’no ifodalaydi. Morfemaning lisoniy birlik holatidagi ramzida uning ifoda jhati va unga xos belgi-xususiyatlar haqida, shuningdek mazmun jhati va unga xos belgixususiyatlar haqida axborat mavjud. Morfemadan har galgi foydalanish ana shu axborat mujassamlashgan ramzdan nusxa olib amalga oshiriladi; morfemaning ana shunday jarayon natijasida moddiy birlik sifatida namoyon bo‘ladigan vakili morf deb nomlanib, nutqiy birlik deyiladi. Demak, morfemaning til xotirasi qismidagi lisoniy birlik holatini va talaffuz birligi sifatidagi nutqiy birlik holatini farqlash kerak. Xullas, leksema bilan morfema orasida juz’iy o‘xshashlik mavjud: har ikkisida ifoda jhati bo‘lib fonema xizmat qiladi, har ikkisi lisoniy birlik sifatida qismga teng. Boshqa muhim belgi-xususiyatlari bilan leksema va morfema o‘zaro jiddiy farqlanadi. Morfemani yagona til birligi deb, leksemani morfemaning bir turi deb talqin etish noto‘g‘ri. Agar shunday noto‘g‘ri fikrga qo‘shilsak, til qurilishining lug‘at bosqichi o‘z mustaqil birligiga ega emas degan fikrga tarafdor bo‘lamiz. Bunday fikr til

qurilishining bosqichlarini tizim sifatida o'rganishga zid. Leksema – til qurilishining lug'at bosqichiga mansub birlik, morfema – til qurilishining morfemalar bosqichiga mansub birlik;leksema – leksik birlik, morfema – grammatik birlik. Morfema – grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladigan eng kichik segment til birligi.

Adabiyotlarda morfemaga tildan (anig'i – lisonidan) kelib chiqib va nutqdan kelib chiqib ta'rif beriladi. Birinchi tur yondashuvda "Morfema – tilning eng kichik ma'noli birligi.." deyiladi. Bunda morfemaga til qurilishini tarkib toptiruvchi birlik deb qaraladi, lekin misol sifatida so'z (suvchi) keltirilib, bu so'z suv lug'aviy morfemasiga va -chi qo'shimcha (umumlashma, affiksial, grammatik) morfemaga ajralishi ta'kidlanadi, demak, ikkinchi tur yondashuvga – "morfema – so'z tarkibida ajratiladigan ma'noli qism" degan fikrga, ya'ni morfemani nutqdan kelib chiqib baholashga qaytiladi. Morfemani "so'zning eng kichik ma'noli qismi" deb nutqdan kelib chiqib ta'riflashdan ko'ra "tilning eng kichik ma'noli birligi" deb ta'riflash to'g'riroq; lekin "eng kichik ma'noli birlik" deb leksik birlikni ham qamrab olish noto'g'ri. Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma'no ifodalovchi birlik ekani ta'rifga kiritilishi lozim. Shunda "lug'aviy morfema", "o'zak morfema" tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi, bular o'rniga leksema terminining o'zi ishlatiladi. Ayni vaqtda "qo'shimcha (umumlashma, affiksial, grammatik) morfema" tarzidagi izohlardan faqat "grammatik" izohining o'zi yetarli bo'ladi. Morfemani "affiksial" deb izohlash – tor: morfemaning boshqa turlari qamrab olinmaydi (Bular to'g'risida quyiroqda gapiriladi). Morfemaga ("qo'shimcha morfema"ga) "umumlashma" izohining keltirilishi ham noo'rin: Bu belgi barcha til birliklariga xos. Xullas, morfemani til qurilishining grammatik ma'no ifodalaydigan eng kichik segment birligi deb ta'riflash yetarli. Morfemalarni tabiatiga ko'ra affiks, affiksoid, leksik tabiatli morfema deb uch turga ajratish mumkin. Affiks – biror qismga, jumladan leksemaga zich qo'shib ishlatiladigan morfema (< lot. affixus - 'biriktirilgan'). Masalan, keldim birligi tarkibida qatnashayotgan -di, -m morfemalari affiksga teng, chunki -di qismi kel- qismiga, -m qismi keldi- qismiga bevosita qo'shiladi. Affiks qo'shiladigan qismga asos deyiladi. Affikslar leksemaning ketiga yoki oldiga qo'shib kelishiga qarab suffiks va prefiks deb farqlanadi. Leksemaning (asosning) ketiga qo'shiladigan affiksga suffiks deyiladi (< lot. suffixus - 'tirikalgan'). Yuqorida keltirilgan -di, -m affikslari - suffikslar. O'zbek tilidagi affikslar - suffiks tabiatli. Leksemaning (asosning) oldiga qo'shib keladigan affiksga prefiks deyiladi (lot. praefixum < prae - 'oldindagi', fixus - 'biriktirilgan'). O'zbek tili morfemalari tizimiga prefiks xos emas; lekin tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha leksemalarga ham qo'shib ishlatila boshlagan ayrim prefikslar mavjud: be-, (beish-kabi), ser- (serunum- kabi).

Affiksoid deb asli leksik birlik bo'lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma'no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo'shib kelish

xususiyatiga ega bo'lgan birlikka aytiladi (lot. affixoid - 'affiksga o'xshash'). Masalan, lug'atimizda xona- leksemasi mavjud (katta xonakabi), shu bilan birga -xona affiksoidi ham mavjud (ishxona-, oshxona-, choyxona- kabi); noma- leksemasi ham (vassalom, noma tamom kabi), -noma affiksoidi ham (taklifnoma-, aybnoma-, ruxsatnoma- kabi) mavjud. Tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida tilimizga kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha so'zlarga ham qo'shilish xususiyatiga ega bo'lgan, asli tojikcha fe'lining asosiga (ko'pincha hozirgi zamon asosiga) teng birliklar ham o'zbek tili nuqtayi nazaridan affiksoidga tenglashtiriladi. Masalan, aybdor-, bo'ydor-, yag'rindor- kabi leksemalar tarkibida qatnashadigan -dor qismi asli tojikcha doshtan ('ega bo'l-') fe'lining hozirgi zamon asosiga teng. Tojik tilshunosligida bunday qism qatnashadigan leksema tuzma leksema deyiladi, demak, bunday qism leksemaga tenglashtiriladi; o'zbek tilshunosligida esa affiksga o'xshatilib affiksoid deb qaraladi. Affiksoidlar leksema yasovchilik vazifasini bajaradi.

Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek affiksoiddan ham) keskin farq qiladi: o'zi taalluqli leksemaga zich qo'shilmaydi, balki ayrimligi saqlanadi, leksemaga o'xshashlik belgisi shu xususiyatida namoyon bo'ladi. Lekin grammatik ma'no ifodalashiga ko'ra affiksga tenglashadi. Tashqi jihati (leksemaga zich qo'shilmasligi) emas, mazmun jihati (grammatik ma'no ifodalashi) asosida bunday birlikni leksik tabiatli morfema deb nomlash mumkin. Bunday morfema deb, masalan, ot turkumi doirasida bilan, uchun kabi ko'makchilarga, sifat va ravish turkumlari doirasida eng, juda kabi kuchaytiruv birliklariga, fe'l turkumi doirasida -ber-, -ol-, -bo'l- kabi ko'makchi fe'llarga aytiladi.¹

Professor Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati kitobida affiksoidga quyidagicha tarif beradi: " Affiksoid (lot. Affixus, yun. eidus tur). Affiks vazifasida qo'llanuvchi morfema: ishxonona, darsxonona kabi so'zlardagi xona. Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek affiksoiddan ham) keskin farq qiladi: o'zi taalluqli leksemaga zich qo'shilmaydi, balki ayrimligi saqlanadi, leksemaga o'xshashlik belgisi shu xususiyatida namoyon bo'ladi. Lekin grammatik ma'no ifodalashiga ko'ra affiksga tenglashadi. Tashqi jihati (leksemaga zich qo'shilmasligi) emas, mazmun jihati (grammatik ma'no ifodalashi) asosida bunday birlikni leksik tabiatli morfema deb nomlash mumkin.²

Tilda affiksoidlar o'z o'rniga ega. Affiksoidlar unumli ishlatiladi, nutqimizda qo'llaniladi. Masalan:

- -xush: xushxabar, xushnavo
- -ham: hamxonona, hamnafas
- -xonona: mehmonxonona, oshxonona

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, Universitet, 2006.115-bet

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 20-b

- -jon: Akmaljon, Quvonchjon
- -oy: Azizaoy, Go'zaloy
- -bek: Azizbek, Sardorbek

Affiksoidlar ham affikslar tarkibida, ham asos tarkibida o'rganilgan. Sababi affiksoidning ma'nosi so'zga, ishlatilishi qo'shimchaga o'xshaydi. Affiksoidlar orqali yasalgan so'zlar juda ko'p. Ular lug'at tarkibida muhim rol o'ynaydi. Masalan, -ham affiksoidi bilan yasalgan so'zlar: hamxona, hamsuhbat, hamyurt. Aynan ko'p ishlatilganligi, ma'nosida zaiflashish borligi uchun ham affiksoid hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tili so'z yasalishiga bir nazar // O'zbek tili va adabiyoti, 1987, 3-son.
2. Rahmatullaev SH. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi son turkumi haqida ba'zi mulohazalar // O'r.OsiyoDU ilmiy asarlari. O'zbek tili masalalari. – Toshkent: SaGU, 1957.
3. Shoabdurahmonov SH. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
4. O'rinboev B. Nomlardagi qirq qanday so'z // O'zbek filologiyasi masalalari. Samarqand, 1998.
5. O'zbek tili grammatikasi, I tom. – T.:Fan, 1975.